TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH VA INVESTITSION KREDITLASH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH TAHLILI	862
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA BAHOLASH MEZONLARI	867
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA MANBALARI	874
Rustamova Dilsabaxon Djurayevna, Baratov Maxsudali Nazaraliyevich	
KORXONA FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	881
Xashimova Dilyora Paxritdinovna	
TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI (DXSH) LOYIHALARINI BOSHQARISHDA ESG VA BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI (UNSDG) KONSEPSIYALARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	888
Masharipov Ravshan Rajabboyevich	



IQTISODIY, MOLIYAVIY, INVESTITSIYA VA SOLIQ SALOHİYATINING O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY XUSUSIYATLARI.....	893
Jurayev Xusan Atamuratovich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RISKLAR BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	900
Kadirov Abdumalik Matkarimovich, Abduqodirova Shahzoda Ilhomidin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINI IQTISODIY-EKOLOGIK JIHATDAN RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	904
Koliyova Shoxista Qahramon qizi, Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR PORTFELLARINI RISK-DAROMAD DILEMMASI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH (G. MARKOVIS VA J. TOBINNING PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA)	909
Kurbanov Xayrilla	
MAMLAKATIMIZNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	915
Mirzayev Rustam Ro'ziyevich	
РЫНОЧНЫЙ СПРОС И РАВНОВЕСИЕ	921
Камилова Наргиза Абдукажхоровна, Ашуров Сардоржон Зафаржонович	
XORIJY DAVLATLARDA AUDITORLIK FAOLIYATINING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI.....	925
Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	
MARKETING-INTERNET XIZMATLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA SAVDO KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	929
Ismoilov Lazizbek Rasuljon o'g'li	
KORXONADA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARINING MAVJUD MODELLARINING RETROSPEKTIVASI.....	934
Toxirova Gullola Mirkamolovna	
SANOATNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TARMOQ KORXONALARI FAOLIYATIGA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING ROLI	940
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	
TIBBIY XIZMATLARNI MOLIYALASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	946
Isroilov Bohodir Ibragimovich, Muhammadiev Ramz Zoirjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ROLI	952
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ.....	957
Журахонов Шержахон Зафаржонович	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMI, RIVOJLANISHINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI	962
Raxmonov Azizjon Sadullayevich	
SOLIQQA TORTILADIGAN KO'CHMAS MULKARNI BAHOLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	970
Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUAMMOLAR.....	974
Yuldashev Iskandar Abdurashidovich	
BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA UNING QURILISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK(DXSH)NI BOSHQARISHDAGI O'RNI	980
Rasulov Shuxrat G'ayratovich	
"YASHIL IQTISODIYOT", EKOLOGIK BARQARORLIK VA EKOLOGIK MADANIYAT	984
Ibragimova Saodat Abdumo'minovna	



EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	990
Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna	
IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI.....	995
Davlatova Ozoda Olmos qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1001
Suyunova Dilfuza Dilmurod qizi	
BOZORNI SEGMENTATSIYALASHDA MARKETING TADQIQOTLARINING ROLI	1006
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilxomovna	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI	1010
Sharifboyev Bunyod Azamat o'g'li, Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna	
TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KAPITALNING ROLI	1016
Mirzaraximova Nurhayot Baxrom qizi	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВУЗОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНОЧНОЙ КОНКУРЕНЦИИ	1020
Ходжаева Наргизахон Анатолиевна	
FUNDRAISING AS A STRATEGIC TOOL IN MUSEUM MANAGEMENT	1028
Aziza Ibroximova	
KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	1035
Boboraxmatova Shohsanam Ibdullo qizi	
MAHALLIY JUN TOLALARINING GEOMETRIK VA FIZIK-MEXANIK XOSSALARINI NOTO'QIMA MATOLAR ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI NUQTAI NAZARIDAN TADQIQ ETISH	1039
Ermatov Shavkat Qulmatovich, Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
MOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI XALQARO STANDARTLARGA O'TKAZISHNING O'ZBEKISTONDAGI DINAMIKASI VA NATIJALARI (OLMALIQ KMK MISOLIDA)	1043
A.J.Tuychiyev, M.V Abdunabiyeva	
TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI QURISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: FARG'ONA VODIYSI (FARG'ONA VILOYATI VA QO'QON HUDUDI) MISOLIDA RAQAMLI LOYIHALASH, OPTIMALLASHTIRISH VA INTELLEKTUAL BOSHQARUV	1051
Yakubov Maqsadxon Sultaniyazovich, Norinov Muhammadyunus Usibjonovich, Zikrayev Akmaljon Alimovich	
O'ZBEKISTONDA KORPORATIV INNOVATSIYA TIZIMINI ISH SAMARADORLIGINI BAHOLOVCHI (KPI) AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQRISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	1057
Rafikova Kamila Baxtiyorovna	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING MOLIYAVIY BOZOR RIVOJIGA TA'SIRI	1063
Abdulazizov Javohir Abduvali o'g'li	
OILAVIY TADBIRKORLIKNI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLİYALASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	1070
Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich	
AMORTIZATSIYALANADIGAN AKTIVLAR HISOBINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	1077
Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li	
BANKLARDA RISK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH.....	1083
Karimov Shoxrux Boydulla ugli	
DIGITALIZATION, RESEARCH CAPACITY AND HIGHER EDUCATION DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: AN ARDL-ECM ANALYSIS (2000-2024)	1087
Ismailova Nilufar	
TURIZMDA TALAB VA TAKLIFNI BAHOLASH USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1094
Suyunov Alijon Jumaboy o'g'li	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ДОХОДАМИ И РАСХОДАМИ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ	1099
Аймухаммедова Амина Какажановна	



“O‘ZMILLIYBANK” AJDA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGI DARAJASI HOLATI TAHLILI	1105
Jumaniyazov Quvanchbek Amatjonovich	



“O‘ZMILLIYBANK” AJDA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGI DARAJASI HOLATI TAHLILI

Jumaniyazov Quvanchbek Amatjonovich

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Email: jumaniyazov_k@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada “O‘zmilliybank” AJda mijozlarning kreditga layoqatliligi darajasi holati, o‘ziga xos xususiyatlar va ularni amalga oshirish tahlili yoritilgan. Shuningdek, “O‘zmilliybank” AJda mijozlarning kreditga layoqatliligi darajasi holatini samarali tahlil qilish yuzasidan xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, “O‘zmilliybank” AJ, mijoz, kredit, kreditga layoqatlilik, tahlil.

Abstract. This article discusses the analysis of the state of creditworthiness of customers in the National Bank of Uzbekistan, its specific features and their implementation. Also, conclusions are given on the effective analysis of the state of creditworthiness of customers in the National Bank of Uzbekistan.

Key words: commercial bank, National Bank of Uzbekistan, customer, credit, creditworthiness, analysis.

Аннотация. В данной статье рассматривается анализ состояния кредитоспособности клиентов в Национальном банке Узбекистана, его особенности и методы проведения. Также даны выводы об эффективности анализа состояния кредитоспособности клиентов в Национальном банке Узбекистана.

Ключевые слова: коммерческий банк, Национальный банк Узбекистана, клиент, кредит, кредитоспособность, анализ.

KIRISH

Ma'lumki, kreditga layoqatlilik mijozning bankdan so'ralayotgan kreditni o'z vaqtida va to'liq qaytarish qobiliyatini baholovchi mezonlar majmuasini anglatadi. Bu baholashda qarz oluvchining daromadi, to'lovlari, kredit tarixi, garov yoki ta'minot imkoniyatlari va boshqa moliyaviy majburiyatlari o'rganiladi. Bu borada banklar uchun mijozning kreditga layoqatliligi kredit berish qarorini asosiy belgilovchi omil bo'lib, bankning risklarini, aktivlar sifatini va moliyaviy barqarorligini saqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi sharoitda bank sektori kreditlash standartlarini oshirish yo'liga tushgan, ehtiyot choralarini kuchaytirgan, mijozlarni ehtiyotkorroq baholashga intilmoqda. To'lov qobiliyatini va moliyaviy majburiyatlarni real baholash kreditlar kechikishi va muammoli kreditlar miqdorining oshishidan himoya qilishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida kreditga layoqatlilikni tadqiq qilish yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, T.V. Pogodina fikricha, kreditga layoqatlilik korporatsiyaning qarz mablag'larini jalb qilish va shoshilinch ravishda ularni to'liq to'lash qobiliyatini belgilaydigan shartlar tizimidir [1]. Bu esa tijorat banklarida to'lov masalalarini tadqiq qilishga asoslanadi. A.D. Sheremet va boshqa mualliflar esa qarz oluvchining kreditga layoqatliligini “uning barcha majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq to'lash qobiliyati” deb ta'kidlaydilar [2]. Bu holatda tijorat banklarida kreditga layoqatlilik majburiyatlar bilan belgilanadi. Y.P. Shatalova fikricha, kreditga layoqatlilikni baholash qarz oluvchining o'z majburiyatlarini to'lash qobiliyatini sifatli baholashga asoslanadi [3]. Shunga asosan, tijorat banklarida kredit riskini boshqarishning ketma-ket jarayonida qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligini baholash uni sifat jihatidan baholash bosqichini aks ettiradi. Boshqa tadqiqotlarga asosan, tijorat banklari, moliya institutlari va kreditorlar uchun kreditga layoqatlilikni baholashda eng yaxshi modellar taqdim etiladi. Bu esa qarz oluvchilar, moliyachilar va tadqiqotchilar ongida texnologik kompaniyalar faoliyatini baholashga asoslanadi. Ya'ni, tadqiqotlarda moddiy aktivlarga ega bo'lmagan kompaniyalarning kreditga layoqatliligini baholashda boshqa ko'rsatkichlarga e'tibor qaratish zarurligi qayd etiladi [4].



Tijorat banklarida mijozlarning kreditga layoqatliligi darajasi banklar uchun muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Chunki u kreditlar sifatini, bankning risk darajasini va umumiy moliyaviy barqarorligini belgilaydi. Tijorat banklari mijozlarni asosan kredit bilan ta'minlangan holda bo'lsa, kredit beradi. Bank kreditining ta'minlanganligi kredit berish tamoyillaridan biridir [5]. Kreditga layoqatlilik — mijozning bankdan olingan kreditni o'z vaqtida va to'liq qaytarish qobiliyatidir. Bu daraja mijozning daromadlari, moliyaviy holati, qarz yuklamasi va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlariga asoslanadi.

Ta'kidlash joizki, banklar amaliyotida korxonalarning kreditga layoqatliligini tahlil qilish va baholashda uch turdagi, ya'ni qoplash, likvidlilik va muxtorlik koeffitsiyentlaridan foydalanilmoqda [6]. Shu bois, ushbu banklarda mijozlarning kreditga layoqatliligi darajasi mijozning kredit olishga qobiliyatini, ya'ni kreditni o'z vaqtida va to'liq qaytarish imkoniyatini baholash uchun qo'llaniladigan ko'rsatkich sifatida ishlatiladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini tahlil qilish moliyaviy munosabatlar tizimini to'g'ri boshqarish imkoniyatini yaratadi [7]. Bu borada kreditga layoqatlilik darajasi mijozning moliyaviy holati, daromadlari, qarz yuklamasi va boshqa omillarga asoslanadi. Kreditga layoqatlilikni baholash qarz olish jarayonining muhim qismi bo'lib, banklarga moliyaviy ishonchlilik to'g'risida ma'lumot beradi [8].

Qarz olish potensialini baholash uchun tijorat banklari kredit tarixi, kredit ballari, daromadlar, qarz-daromad nisbati, garov ta'minoti va bank bilan munosabatlar kabi turli omillarni ko'rib chiqadilar. Masalan, o'z vaqtida amalga oshirilgan to'lovlar va qarz-daromad nisbati past bo'lgan ijobiy kredit tarixi moliyaviy javobgarlikni ko'rsatadi. Ushbu baholash kreditni tasdiqlash, foiz stavkalari, kredit limitlari va kelajakda qarz olish imkoniyatlariga ta'sir qiladi. Kreditga layoqatlilikni oshirish uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish, qarzni kamaytirish, barqaror daromadni saqlash, ijobiy kredit tarixini shakllantirish va banklar bilan munosabatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu baholashni to'g'ri tushunish orqali qarz olish potensialini oshirish uchun amaliy qadamlar qo'yish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida qo'llaniladigan usullardan samarali foydalanildi. Xususan, ushbu maqolada "O'zmilliybank" AJda mijozlarning kreditga layoqatliligi darajasi holatini tadqiq qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kreditga layoqatlilikni baholash "O'zmilliybank" AJ tomonidan shaxsning qarz mablag'larini to'lash qobiliyatini baholash uchun foydalaniladigan jarayonlardan tarkib topadi. Bu kredit tarixi, kredit ballari, daromadlar va qarz darajalari kabi turli omillarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Kuchli kreditga layoqatlilik kreditni tasdiqlash imkoniyatini va qulay shartlarni oshirishi mumkin, past baho esa rad etish yoki yuqori foiz stavkalariga olib kelishi mumkin. Masalan, o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha uzoq tarixga ega bo'lgan va qarz-daromad nisbati past bo'lgan shaxs ko'proq kreditga layoqatli hisoblanadi. Kreditga layoqatlilikni yaxshilash uchun yaxshi kredit rekordini saqlash, qarzni kamaytirish va barqaror daromadga ega bo'lish lozim.

Kredit qobiliyatini baholash "O'zmilliybank" AJda qarz olish jarayonining asosiy jihati hisoblanadi. Bu jismoniy shaxslar yoki korxonalar kredit olishlari mumkinmi va qaysi shartlarda ekanligini aniqlaydi. Baholash "O'zmilliybank" AJga pul qarz berish bilan bog'liq xavflarni baholash va asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Kreditga layoqatlilikni ijobiy baholash qulay foiz stavkalari va yuqori kredit limitlariga olib kelishi mumkin. Salbiy baho esa kreditni rad etish yoki noqulay shartlarga olib kelishi mumkin. Masalan, past kredit balliga ega bo'lgan shaxs kreditlar bo'yicha yuqori foiz stavkalariga duch kelishi mumkin. "O'zmilliybank" AJda kreditga layoqatlilik qanday baholanishini tushunib, jismoniy shaxslar moliyaviy ahvolini yaxshilash va imtiyozli shartlarda kredit olish imkoniyatlarini oshirish choralarini ko'rishlari mumkin.

Kreditga layoqatlilikni baholashda ko'rib chiqiladigan omillarga kredit tarixi, kredit ballari, daromad va bandlik tarixi, qarz-daromad nisbati, garov ta'minoti va ushbu bank bilan munosabatlar kiradi. "O'zmilliybank" AJ qarz oluvchining o'tmishdagi to'lov xatti-harakatlari va avvalgi kreditlar bo'yicha har qanday defolt yoki huquqbuzarliklarni baholaydi. Kredit ballining yuqoriligi defolt xavfining pastligini ko'rsatadi. Qarz oluvchining kreditni to'lash qobiliyatini aniqlash uchun daromad va bandlik tarixi baholanadi. Qarz-daromad nisbati oylik qarz to'lovlarining daromadga nisbatini o'lchaydi. Garov, agar qarzдор kreditni qaytarishda muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, kredit uchun zaxira variant sifatida xizmat qiladi. "O'zmilliybank" AJ bilan ijobiy munosabatlar ham baholashga ta'sir qilishi mumkin.

Kredit qobiliyatini baholash qarz olish jarayonida hal qiluvchi qadamdir. Qarz oluvchi sifatidagi potensialni baholash uchun "O'zmilliybank" AJ turli omillarni hisobga oladi. Kreditga layoqatlilikni baholash jarayoni budjetlashtirish dasturini aks ettiradi. Budjetlashtirish dasturi quyidagi qismlardan tarkib topadi:



- ariza va hujjatlar: kerakli hujjatlar bilan to'liq va aniq kredit olish uchun ariza topshirish dastlabki qadam;
- kredit hisobotini tahlil qilish: bank to'lov tarixi, to'lanmagan qarzarlar va kreditdan foydalanishni baholash uchun kredit hisobotini tahlil qiladi;
- daromad va bandlikni tekshirish: daromadni tekshirish va bandlik barqarorligi to'lov qobiliyatini aniqlashga yordam beradi;
- qarzar-daromad nisbatini hisoblash: bank oylik qarzar majburiyatlarini daromad bilan taqqoslash orqali qarzar-daromad nisbatini hisoblaydi;
- garovni baholash: agar ta'minlangan kredit olish uchun murojaat qilinsa, bank taqdim etilgan garov qiymati va sifatini baholaydi;
- bank bilan munosabatlarni baholash: bank bilan mavjud munosabatlar, shu jumladan bank tarixi, hisobvaraqlar va qarzar olish bo'yicha o'tmishdagi xatti-harakatlar ko'rib chiqilishi mumkin.

Mazkur jarayonlarda "O'zmilliybank" AJ tomonidan kreditni tasdiqlash imkoniyati va qulay shartlarga erishish uchun kreditga layoqatlilikni faol ravishda tayyorlash va yaxshilash yuzasidan choralalar amalga oshiriladi.

"O'zmilliybank" AJda mijozlarning kreditga layoqatlilik darajasi bank faoliyatining samaradorligi va barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, mijozlarning kreditga layoqatlilik asosan ularning daromad manbalari, moliyaviy majburiyatlari va oldingi kredit tarixiga bog'liq. So'nggi yillarda, mijozlarning daromadlarida pasayish kuzatilgani sababli, kreditga layoqatlilik darajasida salbiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu esa kredit risklarining oshishiga va kredit sifatining pasayishiga olib keldi.

Biroq, iqtisodiy tiklanish va moliyaviy siyosatdagi ijobiy o'zgarishlar ta'sirida "O'zmilliybank" AJda mijozlarning kreditga layoqatlilik asta-sekin yaxshilanmoqda. "O'zmilliybank" AJ kredit berishda yanada qat'iy va puxta tahliliy usullarni qo'llashga o'tgani mijozlarning moliyaviy holatini aniq baholash va risklarni kamaytirish imkonini berdi. Shuningdek, kredit sifatini yaxshilash maqsadida qayta moliyalashtirish va mijozlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari joriy etilmoqda. Shu sababli, "O'zmilliybank" AJda mijozlarning kreditga layoqatlilikni oshirish va kredit portfeli sifatini yaxshilash uchun banklar doimiy ravishda kredit risklarini monitoring qilishlari, mijozlarni moliyaviy jihatdan yanada yaxshiroq qo'llab-quvvatlashlari va ularga individual yondashuvni kuchaytirishlari lozim.

Darhaqiqat, "O'zmilliybank" AJda mijozlarning kreditga layoqatlilik darajasi holati quyidagi jihatlar bilan namoyon bo'ladi:

- iqtisodiy tiklanish davrida: so'nggi yillarda iqtisodiyotning tiklanishi va qo'shimcha moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari kreditga layoqatlilikni asta-sekin yaxshilashga yordam berdi;
- kredit sifati monitoringi va baholash tizimlari rivojlandi, bu esa banklarga mijozlarning layoqatlilikni aniqlik bilan baholash imkonini berdi;
- noto'g'ri qarzarlar darajasi ayrim banklarda mavjud bo'lib qolmoqda, bu esa mijozlarning kreditga layoqatlilikiga ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "O'zmilliybank" AJda mijozlarning kreditga layoqatlilik darajasini kredit olishga ariza berib, uni kredit sifatida olganlar tarkibi tashkil etadi. Ushbu holat respublikamiz hududlari bo'yicha quyidagi natijalarga ega bo'ldi (1-jadval).

1-jadval. "O'zmilliybank" AJda kredit olishga ariza berganlar (kredit olgan mijozlar) soni haqida ma'lumot, kishi [9]

Hududlar nomi	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha	221514	237602	188215	167240	247737	328510
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11941	14811	11337	10028	14520	19800
Andijon viloyati	13306	12119	8827	6036	8250	12711
Buxoro viloyati	13615	15231	13708	11341	13632	18148
Jizzax viloyati	10519	13035	9726	10241	13321	14414
Qashqadaryo viloyati	14322	16349	14613	12728	15910	19916
Navoiy viloyati	20450	27740	23838	24215	38742	53017
Namangan viloyati	27721	25342	16246	9832	11840	17248
Samarqand viloyati	17917	20536	16641	15705	21942	28906
Surxondaryo viloyati	7900	9841	8828	8916	11627	14616
Sirdaryo viloyati	3516	4928	5047	5108	6531	8648
Toshkent viloyati	13524	13036	11141	10325	14530	20618
Farg'ona viloyati	20804	20320	15019	11837	15645	20127
Xorazm viloyati	19726	19909	15344	12518	16934	21720
Toshkent shahri	26510	24827	18350	18716	44732	58905



Mazkur 1-jadvalga asosan, 2019-yilda 221 514 nafar kishini, 2024-yilda esa O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 328 510 nafar kishini tashkil etgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida 11 941 (19 800) nafar kishini, Andijon viloyatida 13 306 (12 711) nafar kishini, Buxoro viloyatida 13 615 (18 148) nafar kishini, Jizzax viloyatida 10 519 (14 414) nafar kishini, Qashqadaryo viloyatida 14 322 (19 916) nafar kishini, Navoiy viloyatida 20 450 (53 017) nafar kishini, Namangan viloyatida 27 721 (17 248) nafar kishini, Samarqand viloyatida 17 917 (28 906) nafar kishini, Surxondaryo viloyatida 7 900 (14 616) nafar kishini, Sirdaryo viloyatida 3 516 (8 648) nafar kishini, Toshkent viloyatida 13 524 (20 618) nafar kishini, Farg'ona viloyatida 20 804 (20 127) nafar kishini, Xorazm viloyatida 19 726 (21 720) nafar kishini, Toshkent shahrida esa 26 510 (58 905) nafar kishini tashkil etgan.

Yuqoridagi ko'rsatkichlarni tahlil qilgan holda, "O'zmilliybank" AJda kredit olishga ariza berganlar (kredit olgan mijozlar) sonining o'sish sur'ati tahlil qilindi (2-jadval).

2-jadval. "O'zmilliybank" AJda kredit olishga ariza berganlar (kredit olgan mijozlar) sonining o'sish sur'ati haqida ma'lumot, kishi [9]

Hududlar nomi	2024-yildan 2019-yilga nisbatan o'sish sur'ati, kishi birligida	2024-yildan 2019-yilga nisbatan o'sish sur'ati, foizda
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha	106996	48,30
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7859	65,82
Andijon viloyati	-595	-4,47
Buxoro viloyati	4533	33,29
Jizzax viloyati	3895	37,03
Qashqadaryo viloyati	5594	39,06
Navoiy viloyati	32567	159,25
Namangan viloyati	-10473	-37,78
Samarqand viloyati	10989	61,33
Surxondaryo viloyati	6716	85,01
Sirdaryo viloyati	5132	145,96
Toshkent viloyati	7094	52,45
Farg'ona viloyati	-677	-3,25
Xorazm viloyati	1994	10,11
Toshkent shahri	32395	122,20

Mazkur 2-jadvalga asosan, 2024-yilda 2019-yilga nisbatan o'sish sur'ati O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 48,30 foizga, Qoraqalpog'iston Respublikasida 65,82 foizga, Buxoro viloyatida 33,29 foizga, Jizzax viloyatida 37,03 foizga, Qashqadaryo viloyatida 39,06 foizga, Navoiy viloyatida 159,25 foizga, Samarqand viloyatida 61,33 foizga, Surxondaryo viloyatida 85,01 foizga, Sirdaryo viloyatida 145,96 foizga, Toshkent viloyatida 52,45 foizga, Xorazm viloyatida 10,11 foizga, Toshkent shahrida 122,20 foizga oshgan bo'lsa-da, Andijon viloyatida 4,47 foizga, Namangan viloyatida 37,78 foizga va Farg'ona viloyatida 3,25 foizga kamaygan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mijozlarning kreditga layoqatliligi darajasi banklarning moliyaviy barqarorligi va kredit portfelining sog'lomligini ta'minlashda asosiy omil bo'lib qolmoqda. Banklar tomonidan kreditlash siyosatini yanada takomillashtirish, mijozlarni moliyaviy jihatdan yaxshiroq tayyorlash va iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish orqali kredit risklarini kamaytirish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Boshqa tomondan, banklar va moliyaviy institutlar infratuzilmasining kompleks rivojlanishi, aholi daromadining nisbatan yuqoriligi va kredit xizmatlarining sifatli yetib borishi bilan namoyon bo'ladi. Ushbu holatdan yanada samarali foydalanish uchun kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish, kichik shahar va qishloqlarda bank xizmatlariga kirishuvchanlikni oshirish, tavakkalchiliklarni boshqarish amaliyotlarini kuchaytirish kabi choralar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Погодина Т.В. Финансовый менеджмент [Текст]. / Т.В.Погодина. - М.: Издательство Юрайт, 2020. - 351 с.
2. Шеремет А.Д., Сайфулин Р.С., Негашев Е.В. Методика финансового анализа предприятия. - М.: "Юни-Глоб", 1992. - с. 35.
3. Шаталова Е.П. Оценка кредитоспособности заемщиков в банковском риск-менеджменте: учебное пособие. / Е.П.Шаталова, А.Н.Шаталов. - 2-е изд., стер. - М.: КНОРУС, 2012. - с. 12.
4. Victoria Mwongeli Munguti, Richard Maala Ngali. Evaluating Credit Worthiness of Small and Growing Technology Businesses. // The University Journal, Volume2, Issue1, 2020. - p. 81.5. Karaliyev T. Bank faoliyati tahlili. T.M.Karaliyev va boshqalar. O'quv qo'llanma. Moliya instituti. - T.: «NISO POLIGRAF», 2016. - 72 b.
5. Karaliyev T. Bank faoliyati tahlili. T.M.Karaliyev va boshqalar. O'quv qo'llanma. Moliya instituti. - T.: «NISO POLIGRAF», 2016. - 72 b.
6. Maxamadiyev A. Ch. Korxonalarning kreditga layoqatliligi tahlilining skoring modeli va uning axborot ta'minotini takomillashtirish. // International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS), Volume7, Issue06, June, 2024. - 158-159 b.
7. Safarov A.I. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning kreditga loyohatlilik tahlili va uni takomillashtirish. // International scientific journal «Modern science and research», Volume4, Issue4, 2025. - 902 b.
8. <https://enrichest.com/en/blog/understanding-creditworthiness-assessment-how-banks-evaluate-borrowing-potential>
9. "O'zmilliybank" AJ hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
